

## QOBILIYATNI O'Z VAQTIDA ANIQLASH VA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

*Andijon davlat pedagogika instituti vb dotsenti*

***O'g'ilxon Tolibjonovna Vaxabova***

*Andijon davlat pedagogika instituti talabasi*

***Umarova Mohlaroyim Abdullajon qizi***

**Annotation:** Ushbu maqolada qobiliyat tushunchasining mazmun-mohiyati, uni aniqlash usullari hamda shaxs va jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Qobiliyatni aniqlashning psixologik va pedagogik usullari, zamонавиј тeхnologiyalar qo'llanilishi yoritiladi. Tadqiqotlar qobiliyatni o'z vaqtida aniqlash va rivojlantirish muhimligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** qobiliyat, maxsus qobiliyatlar, psixologik testlar, psixik sifatlar, ta'lim jarayonlari, intellectual qobiliyatlar, ijodiy faoliyat, matematik qobiliyat.

### PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PRINCIPLES OF TIMELY DETERMINATION AND DEVELOPMENT OF ABILITY

**Annotation:** This article analyses the essence of the concept of ability, the methods of determining it, and its importance in the development of the individual and society. Psychological and pedagogical methods of determining ability, the use of modern technologies are covered. Research shows the importance of identifying and developing skills in a timely manner.

**Key words:** ability, special abilities, psychological tests, psychic qualities, educational processes, intellectual abilities, creative activity, mathematical ability.

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ СВОЕВРЕМЕННОГО ОПРЕДЕЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ СПОСОБНОСТЕЙ

**Аннотация:** В данной статье анализируется сущность понятия способности, способы ее определения, а также ее значение в развитии личности и общества. Освещены психолого-педагогические методы определения способностей и использования современных технологий. Исследования показывают важность раннего выявления и развития навыков.

**Ключевые слова:** способности, специальные способности, психологические тесты, психические качества, образовательный процесс, интеллектуальные способности, творческая деятельность, математические способности.

**Kirish.** Inson qobiliyati uning intellektual va ijodiy faoliyati, shuningdek, kasbiy yutuqlarida muhim o‘rin tutadi. Shaxsnинг tug‘ma va orttirilgan qobiliyatlarini aniqlash hamda ularni rivojlantirish jamiyatning turli sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur hisoblanadi. Qobiliyatni aniqlash - bu insonning o‘zida mavjud bo‘lgan ko‘nikma, qobiliyat yoki iste’dodni aniqlash jarayonidir. Bu jarayon turli usullar va yondashuvlar yordamida amalga oshiriladi. Bugungi kunda ta’lim va kadrlar boshqaruvida qobiliyatni aniqlash dolzarb masala bo‘lib, bu sohada psixologik testlar, kuzatish va ilg‘or texnologiyalar qo‘llaniladi. Ushbu maqolada qobiliyatni aniqlash jarayonining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi.

Qobiliyat — shaxsnинг ma’lum bir faoliyat turida yuqori natijalarga erishish imkoniyatini belgilovchi individual psixologik xususiyatlar majmuasidir. Qobiliyatlar har bir insonda turlicha bo‘ladi. Bir insonning musiqa sohasida qobiliyati mavjud bo’lsa boshqa birini matematikaga qobiliyati bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra qobiliyatlar ikki xil bo‘ladi: umumiy va maxsus.

Umumiy qobiliyatlar- mavjud bo’lganda kishi faoliyatining turli xillari bilan muvaffaqiyatli shug’ullana oladi. Umumiy qobiliyatga ega o’quvchilar odatda barcha fanlardan yaxshi va qiyalmay o’qiydilar. Umumiy qobiliyatlar aqliy qobiliyat, diqqatni jamlash, mantiqiy fikrlash kabilarni o‘z ichiga oladi.

Maxsus qobiliyatlar- kishiga qandaydir bir muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanish imkonini beradi. Masalan, matematik, texnikaviy, adabiy, musiqaviy, tasviriy va boshqa qobiliyatlar bo’ladi.

Umumiy qobiliyatlar va maxsus qobiliyatlarni bir-biriga zid qo‘yish xato bo‘ladi, chunki ikkalasi ham bir-birini to‘ldiruvchi hisoblanadi. Maxsus qobiliyatlar tor ma’noda bo‘lsa ham, chuqurroq mohiyatni o‘zida mujassamlashtiradi.

Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko‘nikma, malakadan farq qiladi. Qobiliyat insonga berilgan in’om sifatida qaraladi.

Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobiliyat aynanlashtiriladi. Qobiliyat inson tomonidan ko‘nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi.

Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo‘lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o‘zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko‘rsatkichlarga erishishni ta’minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunish kerak bo‘ladi.

Psixologik ma’lumotlarga qaraganda, insondagi yuksak ko‘rsatkichga erishgan sifat har qancha ustuvorlikka ega bo‘lsa ham, u talablarni qondirish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Ayrim xollarda alohida namoyon bo‘lgan psixik xususiyat (hislat) faoliyatining yuksak mahsulдорligi va samaradorligini ta’minlash imkonyatiga ega, u qobiliyatlar uddalay oladigan imkoniyat bilan babbaravar kuch quvvat tariqasida vujudga keladi, degan faraz o‘zini oqlamaydi. Shuning uchun qobiliyatlar murakkab tuzilishiga ega bo‘lgan psixik sifatlar(hislatlar) majmuasidir deyish juda o‘rinli sanaladi.

Qobiliyatlar sifatida ro‘yobga chiqadigan psixik sifatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan belgilanganligi tufayli har

qaysi turdag'i faoliyatlar uchun o'ziga xos tarzda qo'yilishi turgan gap. Buning uchun ayrim misollarni tahlil qilib o'tsak o'rinsiz bo'lmaydi:

- 1) Matematik qobiliyat: matematik materiallarni umumlashtirish, mulohaza yuritish jarayonini qisqartirish matematik ish-amallarni kamaytirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o'rtasida aloqa o'rnatish, to'g'ri va teskari fikr yuritishdan yengib o'tishlik, masala yechishda fikr yuritishning epchilligi kabilar;
- 2) Adabiy qobiliyat: nafosat hislarining yuksak taraqqiyot darajasi, xotirada yorqin ko'rgazmali obrazlarning jonliligi, "til zehni", behisob xayolot, ruhiyatga qiziquvchanlik, o'zini ifodalashga intiluvchanlik va boshqalar.<sup>1</sup>

Ajratib ko'rsatilgan qobiliyatlar tarkibidan ko'rinish turibdiki, matematik va adabiy qobiliyatlar o'zaro bir-biriga o'xshamagan talablarni qo'shgan holda tafovutga egadir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, pedagogik, musiqaviy, texnik, konstruktorlik, tibbiy qobiliyatlar va shunga o'xhash qobiliyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo'lib, kasbiy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Maxsus qobiliyatlardan biri hisoblangan matematik qobiliyatni o'rgangan psixolog V.A.Krutetskiy fikriga ko'ra, har qanday faoliyat turi shaxsning belgilangan sifatlari birikmasini talab qiladi. V.A.Krutetskiy aqliy faoliyatning xususiyatlari bo'lgan matematik qobiliyatlar haqida gapirib, avvalo o'qituvchilar o'rtasida bir munkha tarqalgan yanglish fikr haqida to'xtalib o'tadi. Birinchidan, matematik qibiliyatlar dastavval tez va aniq hisoblash qobiliyati chinakkam matematik qobiliyatlarni tarkib toptirish bilan hamma vaqt ham bog'liq bo'lavermaydi. Ikkinchidan, matematikaga qobiliyatli bo'lgan o'quvchilar formulalar, raqamlar va sonlarni eslab qolish uchun juda yaxshi xotiraga ega bo'ladilar, deb hisoblanadi. Biroq matematikadagi ko'p miqdordagi raqamlar, faktlar, sonlar, formulalarni tez va mustaxkam esda olib qolish qobiliyatiga anche

<sup>1</sup> Yorlaqobov.H.U. Qobiliyat va uning turlari.Zomin tumani:ilm-fan/ in-academy.uz/index.php/si

kam asoslangan. V.A.Krutetskiy matematikaga bo‘lgan qobiliyatlar, matematik masalalarni idrok qilish harakteriga ta’sir ko‘rsatishini aytadi.<sup>2</sup>

Maktab o‘quvchilarining adabiy qobiliyatini tekshirish shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning qobiliyatilari qobiliyatsizlaridan, V.P.Yagunkovaning ma’lumotlari bo‘yicha, idrok qilishning aniqligi va xotirasi bilan, yangi original obraz, syujetlar tuzishdagi tafakkur kuchi va tasavvuri bilan, ijodiy vaziyatning yengilgina yuzaga kelishi bilan, so‘z boyligi va sezgisi bilan farqlanadilar.

Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan biri — narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir. U shaxsning shakllanishi va rivojlanishi natijasi bo‘lishi bilan birga, tabiiy manbaga ham ega. Bu tabiiy manba ko‘pincha zehn tushunchasi bilan yuritiladi. Zehn nishonalarini deganda qobiliyat ichki imkoniyatlarining tabiiy asosini tushunish lozim. U ishtiyoq, moyillik, mehnatsevarlik, ishchanlik, talabchanlik kabilarning mahsulidir. Qobiliyat umumiyligi va maxsus turkumlarga ajratiladi. Umumiyligi qobiliyat deganda yuksak aqliy imkoniyat va taraqqiyot tushuniladi. Qobiliyat tabiiy ravishda shakllanishi va muayyan reja asosida rivojlantirilishi mumkin. Qobiliyatni ma’lum faoliyatga moyillik yoki intilish orqali, tabiiy zehn nishonalarini aniqlash, mutaxassis rahbarligida uzluksiz faoliyatga jalb etish, qobiliyatni takomillashtirishning maxsus vositalarini qo‘llash, shaxsning faollik alomatlarini maksimal darajada rivojlantirish, inson shaxsiga alohida yondashuvni umumiyligi talablar bilan uyg‘unlikda olib borish va boshqa orqali rivojlantirish yo‘llari mavjud. Qobiliyatning yuqori darajasi iste’dod va daholik namoyon bo‘ladi. Qobiliyatlar, aslida, tug‘ma bo‘ladi. Qobiliyat tug‘ma bo‘lsada uning rivojlanishi ijtimoiy muhitga ham bog‘liq bo‘ladi.

Qobiliyatni aniqlash shaxsning ijtimoiy va kasbiy muvaffaqiyati uchun muhimdir. Ushbu jarayonda quyidagi usullar qo‘llaniladi:

<sup>2</sup> Yorlaqobov.H.U. Qobiliyat va uning turlari.Zomin tumani:ilm-fan/ in-academy.uz/index.php/si

Psixologik testlar: shaxsning aqliy, ijodiy va maxsus qobiliyatlarini o‘lchash uchun mo‘ljallangan. Masalan, IQ testlari aqliy salohiyatni baholashda keng qo‘llaniladi.<sup>3</sup>

Kuzatish va suhbat: shaxsning muayyan faoliyatdagi xatti-harakatlari va yondashuvlari tahlil qilinadi.

Zamonaviy texnologiyalar: kompyuter dasturlari va sun’iy intellekt asosida qobiliyatni aniqlash jarayonlari avtomatlashtirilgan. Bu usul ta’lim va kadrlar boshqaruvi tizimida samarali hisoblanadi.

Qobiliyatni aniqlash yuzasida ko‘plab olimlar tajribalar olib borishgan va ularning ko‘plari o‘z maqsadiga erishganlar. Masalan, Alfred Bine (1857–1911) IQ testi asoschisi hisoblanadi. Binet Fransiyada bolalar qobiliyatlarini o‘rganish va ularni mos ravishda ta’lim tizimiga yo‘naltirish uchun ilk intellektual testlarni ishlab chiqdi. Buning asosida keyinchalik Stenford-Binet testi yaratildi. David Wechsler (1896–1981) Veksler intellektual testlari (WAIS va WISC) asoschisi. U intellektni turli qobiliyatlar yig‘indisi deb hisoblab, IQ testlariga verbal va jismoniy qobiliyatlarni ham kiritdi. Charles Spearman (1863–1945) esa "Umumiy intellekt" (g-omil) nazariyasini fanga kiritgan olim sifatida mashhur. U umumiy qobiliyat barcha aqliy faoliyatlarning asosi ekanligini ta’kidladi va statistik tahlil usullarini qo‘llab o‘z nazariyasini ishlab chiqdi. Bu kabi olimlardan ko‘plarini sanab chiqish mumkin, ularning deyarli hammasi ham fanga ma’lum bir ma’noda foyda kiritganlar.

Qobiliyatni aniqlash borasida ko‘plab ma’lumotlar berib o‘tildi, quyida qobiliyatni rivojlantirish haqida ma’lumotlar keltirib o‘tmoqchiman.

Qobiliyatni rivojlantirishning ko‘plab yo‘llari mavjud, ulardan biri ijodiy fikrlashga harakat qilish hisoblanadi. Muvaffaqiyat doimo g‘oyalardan boshlanadi. Inson o‘zini chegaralab tashlamasligi, fantaziyasini ishga solishi,

<sup>3</sup> Karimova V.X. Psixologik testlar va ularning qo‘llanilishi. Toshkent: Sharq, 2019.

yangi g‘oyalarni ixtiro qilishga, yechimini topishga va odamlar bilan aloqa qilish osonroq bo‘lishiga olib boradi.

Ko‘proq kitob mutolaasi, tinimsiz izlanish, muammolarni yechish malakani hosil qiluvchi va miyaning plastikligini oshiruvchi ko‘plab o‘yinlar va ilovalar miyyaning plastikligini oshirishga xizmat qiladi. Neyroplastiklik — bu miyaning yangi nevronli aloqalar hosil qilish qobiliyati. Miya qanchalik plastikroq bo‘lsa, u olingan ma’lumotlarni shunchalik tezroq va samaraliroq tayyorlaydi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning qobiliyatini aniqlash ularning shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi. Kasbiy faoliyatda esa qobiliyatlarni aniqlash ish unumdorligini oshirish va samarador kadrlarni tayyorlashga yordam beradi. Shu bilan birga, shaxsning o‘z imkoniyatlarini bilishi va to‘g‘ri yo‘nalishda harakat qilishi uchun motivatsiya manbai hisoblanadi.

Qobiliyatni aniqlash shaxsning kasbiy va shaxsiy yutuqlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish uchun qobiliyatlarni aniqlash, ularga mos faoliyatni tanlash va ulardan samarali foydalanish zarur. Bu nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyat taraqqiyotiga ham hissa qo‘shadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. G‘ulomov S.S. Psixologiya. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2017.
2. <https://daryo.uz/2017/12/12/intellektual-qobiliyatni-oshirishning-5-usuli>
3. Karimova V.X. Psixologik testlar va ularning qo‘llanilishi. Toshkent: Sharq, 2019.
4. Normatov Z.A. Shaxs rivojlanishining psixologik asoslari. Toshkent: Ma’naviyat, 2020.
5. ВАҲАБОВА, Ў. (2023). ТУРЛИ ПСИХОДИАГНОСТИК МЕТОДИКАЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(1), 134-138.

6. Yusupov R.A. Ta'lim jarayonida qobiliyatni aniqlash usullari. Toshkent: Fan, 2021.
7. Yorlaqobov.H.U. Qobiliyat va uning turlari.Zomin tumani:ilm-fan/ in-academy.uz/index.php/si
8. Nishanova Z.T. Yuqori sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish Resp. Ilm.-amal. konf. mater.. –Termiz, 1992.
9. Davletshin M.G. Yosh davrlar va pedagogik psixologiya asoslari. - Toshkent: TDPU, 2006.
10. Davletshin M.G. Техническая одарённость и ее выявление //O‘zbekistonning iste’dodli bolalari / Respublika ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari. –Termiz, 1992.